

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук (DSc), профессор

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук (DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпўлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

ВМЕСТЕ СОЗДАВАЯ БУДУЩЕЕ СОЦИАЛЬНОЙ НАУКИ.....	6
1. Сейтов Азамат ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ КАК ЛИДЕРОВ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	8
2. Xolbekov Abdug‘ani ШАХС ИЖТИМОЙИ ФАОЛИЯТИ ОМИЛЛАРИ ВА СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ (7 “Г” ФОРМУЛАСИ ТАЛҚИНИДА).....	16
3. Farfiyev Baxramdjan, Abdupattaev Mumin Mirzo DUNYOVIYLIK VA DINIYLIK UYG‘UNLIGI, BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASH – IJTIMOIY BARQARORLIK ASOSI.....	23
4. Abduraxmonova Manzura KAM TA‘MINLANGAN OILALAR TUSHUNCHASINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	32
5. G‘afforova Mavlyuda SIYOSIY YETAKCHINING SHAKLLANISHI VA UNDA IMIJNING O‘RNI.....	40
6. Seitova Zuhra AL-FOROBIIY: FALSAFA, AXLOQ VA SIYOSIY FIKRLAR.....	48
7. Alikariyeva A‘loxon TA‘LIM SIFATI TALABALAR NIZOHIDA: SOTSIOLOGIK TADQIQOT NATIJALARI.....	53
8. Kamalova Khatira QARAQALPAQ XALQÍ HAYAL-QÍZLARÍNÍN JÁMIETLIK-SIYASIY BELSENDILIGI.....	60
9. Якубов Ильдар ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В КНР.....	72
10. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHNING IJTIMOIY NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	79
11. Hojiyev Zavqiddin IJTIMOIY XAVFSIZLIK: ILMIY-NAZARIY VA SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	88
12. Axmedova Feruza TIBBIYOT IJTIMOIY INSTITUT SIFATIDA.....	96
13. Akramov Xusan ISLOMIY QADRIYATLAR VA IJTIMOIY ME‘YORLAR: IMOM AL-BUXORIY HADISLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	106
14. Axmedov Qaxramon IJTIMOIY XODIMLARNI TAYYORLASHDA PROFESSIONAL TA‘LIMNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY JIHA TLARI.....	112
15. Raximova Shaxnoza AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	123
16. Xaydarova Javohira RAHBAR AYOLLARLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARINI JORIY ETISH.....	131

17. Kamilov Farxod	
INTERNAT MUASSASALARINI NOINSTITUTIONALLASHTIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	142
18. Razzakova Nargis	
MUSTAHKAM OILAVIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI VA TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONI.....	150
19. Axmedova Ra'no	
O'ZBEKISTON YOSHLARI FAROVONLIGINING TAHLILI: JAHON QADRIYATLARI TADQIQOTI (WORLD VALUES SURVEY) MA'LUMOTLARI ASOSIDA.....	157
20. Мирзаева Шахноза	
ЖЕНСКОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В УСЛОВИЯХ РЕФОРМ: РЕЗУЛЬТАТЫ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ.....	165
21. Вахидова София	
ЭВОЛЮЦИЯ ГЕНДЕРНЫХ РОЛЕЙ И РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ: МЕЖПОКОЛЕНЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОТ БЭБИ-БУМЕРОВ ДО ПОКОЛЕНИЯ X.....	174
22. Bozorova O'limaxon	
IJTIMOYIY KAPITALNING MINTAQAVIY O'ZIGA XOSLIKLARI: SHARQ VA G'ARB TAJRIBASI.....	183
23. Ruyiddinova Aisha	
INSON ONGIDAGI AXBOROT STEREOTIPLARINING ISHONCHLI AXBOROTGA TA'SIRI.....	195
24. Tursunboyev Jahongir	
SOTSIOLOGIK ILMIY MAKTABLARNING ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIGA OID NAZARIY YONDASHUVLARI.....	201
25. Raximbayeva Oftobxon	
ZAMONAVIY RAXBARLARDA KASBIY VA IJTIMOYIY KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	208
26. Sharopov Sadriddin	
INTELLEKTUAL SALOHİYAT – YOSH RAHBARLAR BOSHQARUV FAOLIYATI SAMARADORLIK OMILI SIFATIDA.....	215
27. Burxanov Xusniddin	
RAQAMLI JAMIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA ALGORITMIK YONDASHUVLAR.....	224
28. Mamaziyaeva Nargiza	
O'ZBEKISTON VA TURKIYADA SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OQILONA OVQATLANISH AMALIYOTINING QIYOSIY TAHLILI.....	232
29. Murodova Fotimabonu, Axmedova Feruza	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI SOTSIOLOGIYA: MILLIY HOLAT VA XALQARO TAJRIBALAR.....	238


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Hojiyev Zavqiddin,

О‘zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi,
sotsiologiya fanlari doktori (DSc)

ИЖТИМОЙ ХАВФСИЗЛИК: ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА СОТСИОЛОГИК ТАХЛИЛ

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18354932>

ANNOTASIYA

Mazkur maqolada ijtimoiy xavfsizlik tushunchasi hamda uning mamlakat milliy xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Xususan, ijtimoiy xavfsizlik tizimining mavjudligi inson, jamiyat va davlat o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik omillari bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqilib, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi ustuvor yo‘nalishlar asoslab berilgan. Ijtimoiy xavfsizlik mohiyatini yoritishda ijtimoiy soha, ijtimoiy tizim, ijtimoiy guruh va ijtimoiy jamoa kabi kategoriyalar integral tushuncha sifatida tahlil qilinib, uning jamiyat ijtimoiy sohasining samarali faoliyatini ta’minlashga yo‘naltirilganligi ta’kidlangan. Shuningdek, ushbu tushunchaning nazariy asoslari, ilmiy yondashuvlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilgan huquqiy qarashlar tahlil qilingan. Bundan tashqari, ijtimoiy xavfsizlik tushunchasining qamrovi keng yoritilib, ushbu sohada xavfsizlikni ta’minlashga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tizimli tarzda turkumlab olingan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy xavfsizlik, tahdid, shaxs, ijtimoiy guruh, ijtimoiy tenglik, ijtimoiy adolat, daromad, bandlik.

Хожиев Завкиддин,

Соискатель Национального университета Узбекистана,
доктор социологических наук (DSc)

СОЦИАЛЬНАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ: НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

АННОТАЦИЯ

В настоящей статье научно проанализированы понятие социальной безопасности, а также её роль и значение в обеспечении национальной безопасности страны. В частности, существование системы социальной безопасности рассматривается во взаимосвязи факторов, объединяющих человека, общество и государство, и обоснованы приоритетные направления в обеспечении социальной стабильности. При раскрытии сущности социальной безопасности такие категории, как социальная сфера, социальная система, социальная группа и социальное сообщество, исследуются как интегральные понятия, при этом подчёркивается их направленность на обеспечение эффективного функционирования социальной сферы общества. Кроме того, рассмотрены теоретические основы данного понятия, научные подходы и правовые взгляды, выдвинутые международными организациями. Также подробно освещён объём понятия социальной безопасности и систематизированы факторы, влияющие на обеспечение безопасности в данной сфере.

Ключевые слова: социальная безопасность, угроза, личность, социальная группа, социальное равенство, социальная справедливость, доход, занятость.

Khojiev Zavkiddin,

Researcher of the National University of Uzbekistan,
Doctor of Sociology (DSc)

SOCIAL SECURITY: SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIOLOGICAL ANALYSIS

ABSTRACT

This article provides a scientific analysis of the concept of social security and its role and significance in ensuring the national security of the country. In particular, the existence of the social security system is examined in connection with the interrelations among the individual, society, and the state, with substantiated priority directions for ensuring social stability. In explaining the essence of social security, such categories as the social sphere, social system, social group, and social community are analyzed as integral concepts, emphasizing their orientation toward ensuring the effective functioning of the social sphere of society. Furthermore, the theoretical foundations of this concept, scholarly approaches, and legal perspectives put forward by international organizations are examined. In addition, the scope of the concept of social security is broadly covered, and the factors influencing the provision of security in this field are systematically classified.

Keywords: social security, threat, individual, social group, social equality, social justice, income, employment.

KIRISH

Butun insoniyat tarixi davomida xavfsizlikni ta'minlash ehtiyoji inson faoliyatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunday sharoitda shaxsiy va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash masalasi nafaqat shaxsning, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarurligini ko'rsatmoqda. Shu sababli ijtimoiy xavfsizlikni ilmiy jihatdan tadqiq qilish orqali jamiyatning barqaror hayotiy faoliyatini ta'minlash muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida insonning xavfsiz hayot kechirishi muammolariga qiziqish sezilarli darajada oshdi. Zamonaviy tadqiqotlarda bilish vektori kundalik hayotdagi tahdidlar va ularning oldini olish mexanizmlariga transformatsiya bo'lmoqda. Mazkur sohadagi tadqiqotlarni tizimli ravishda tadqiq qilish zarurati ijtimoiy xavfsizlikni tahlil qilishning ilmiy usullarini ishlab chiqishga turtki bo'ldi.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatda ijtimoiy xavfsizlik tizimining mavjudligi inson, jamiyat va davlat o'rtasidagi bog'liqlik hamda o'zaro munosabatlarni chuqur anglash imkonini yaratadi. Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash masalalari har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti va ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi asosiy ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi. Ushbu masala aholining turmush darajasi, ijtimoiy tuzilmalarning rivojlanish dinamikasi, shaxs va guruh manfaatlarini himoya qilish bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli, ijtimoiy xavfsizlik nafaqat milliy manfaatlarini himoya qilish, balki aholi turmush sharoitlarini yaxshilash, takomillashtirish va ijtimoiy munosabatlarni muvozanatli rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

METODOLOGIYA

Sotsiologik nuqtayi nazardan xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoj insonning biologik mavjudligi va ijtimoiy hayotini shakllantiruvchi uzviy, fundamental sohalaridan biri hisoblanadi. A.Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasida xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoj fiziologik ehtiyojlardan keyingi bosqichda turishi ham uning universal qonuniyat sifatidagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Mazkur ehtiyoj qondirilmagan taqdirda, insonning yuqori darajadagi ma'naviy, ijtimoiy va ijodiy ehtiyojlari to'liq ro'yobga chiqmaydi [1]. Ushbu nazariyadan ko'rinib turibdiki, xavfsizlik ehtiyoji inson hayotidagi universal qonuniyat bo'lib, uning rivojlanishi, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik va davlat milliy xavfsizligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy

sotsiologiyada xavfsizlik nafaqat shaxsiy hayotni, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi va global xavflarga javob qaytarish imkoniyatlarini ham belgilaydi.

So‘nggi yillarda ijtimoiy xavfsizlik tushunchasiga nisbatan ko‘plab ilmiy yondashuvlar va nazariyalar rivojlanib kelmoqda. Ushbu yondashuvlarda ijtimoiy xavfsizlik ijtimoiy sohaning tuzilmaviy munosabatlari, imkoniyatlari, shaxsning jamiyatdagi o‘rni, ijtimoiy-psixologik holati va boshqa jarayonlar bilan bog‘liq holda izohlanadi. Ijtimoiy xavfsizlik tushunchasining shakllanishi va uning milliy xavfsizlik tizimidagi o‘rni zamonaviy sotsiologiya va siyosatshunoslik fanlarida ham muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayrim olimlar uni davlatning ijtimoiy funksiyalari, aholi farovonligi, turmush sifati va ijtimoiy adolat bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qiladilar.

ASOSIY QISM

Ijtimoiy xavfsizlik atamasiga inson mavjudligining turli qirralarini aks ettiruvchi turli xavfsizlik yo‘nalishlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi tushuncha sifatida qaraladi. Ijtimoiy xavfsizlik mohiyatiga oid turli qarashlarning mavjudligi esa, avvalo, “ijtimoiy” tushunchasining mazmunini turlicha tushunish va talqin qilish bilan bevosita bog‘liq. «Ijtimoiy xavfsizlik» tushunchasiga ta’rif berishdan oldin, «ijtimoiy», «ijtimoiy tizim», «ijtimoiy guruh», «ijtimoiy jamoa» tushunchasilarini izohlab olish zarur.

“Ijtimoiy” atamasi biz jamiyat hayotining muayyan bir sohasi – ijtimoiy sohaning tavsifi sifatida qo‘llaniladi. Bu soha individ va ijtimoiy guruhlarning mavqei bilan bog‘liq ravishda jamiyat resurslarining taqsimlanishi, ijtimoiy maqomidagi farqlar va ijtimoiy tengsizlik kabi omillarni o‘zida ifodalaydi. Ijtimoiy sohaning substansional asosini hisobga olgan holda, ijtimoiy xavfsizlikni biz hayotni qayta tiklash va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish jarayonlariga tahdid soluvchi xavf-xatarlardan himoyalangan holat sifatida talqin etamiz. Shu ma’noda, ijtimoiy xavfsizlik ushbu jarayonlarning natijalari va parametrlari orqali tavsiflanadi.

Ijtimoiy soha – inson hayotini qayta tiklash va individ hamda ijtimoiy guruhlarning mavqei va tengsizliklari bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish soha sanaladi. U to‘g‘ridan-to‘g‘ri sog‘liqni saqlash, ta’lim, demografik siyosat, uy-joy va pensiya ta’minoti, ijtimoiy sug‘urta, ish haqi, mehnat sharoitlari va mehnat muhofazasi, ijtimoiy hamkorlik va mehnat munosabatlari, aholi bandligi va ishsizlik, mehnat migratsiyasi, ijtimoiy himoya hamda aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish masalalari bilan bog‘liq. Shu bois, ijtimoiy xavfsizlik ijtimoiy sohaning sifat jihatidan holati sifatida yuqorida qayd etilgan elementlarni baholash orqali tavsiflanishi lozim.

“Ijtimoiy tizim” – bu o‘zaro muayyan munosabat va aloqalarda bo‘lgan elementlar (shaxslar, turli ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, ijtimoiy jamoalar) majmui bo‘lib, ular muayyan ijtimoiy yaxlitlikni tashkil etadi. Ko‘rinib turibdiki, ijtimoiy tizimning asosiy elementlari shaxs, ijtimoiy guruhlar va ijtimoiy jamoalar hisoblanadi [2].

“Ijtimoiy guruh” – bu muayyan ahamiyatli ijtimoiy belgisiga ega individlarning birlashmasi bo‘lib, u belgilar ularning ma’lum bir faoliyatdagi ishtiroki bilan belgilanadi. Ushbu munosabatlar tizimi rasmiy institutlar yoki norasmiy ijtimoiy me’yorlar tomonidan tartibga solinib, jamoaviy birlik va identifikatsiyani shakllantiradi.

“Ijtimoiy jamoa” – bu yashash sharoitlari, qadriyatlarini, manfaatlari va me’yorlari o‘xshash bo‘lgan, o‘zaro barqaror ijtimoiy aloqalar tizimiga ega hamda umumiy ijtimoiy identifikatsiya ongi orqali birlashgan individlar majmui bo‘lib, ijtimoiy hayotning mustaqil subyekti sifatida namoyon bo‘ladi [3].

Ilmiy manbalarda ijtimoiy xavfsizlik atamasi nisbatan yaqin davrda shakllanib, xalqaro va milliy darajadagi ilmiy muomalaga kirib keldi.

XX asrda xavfsizlikning asosiy yo‘nalishlari sifatida harbiy va iqtisodiy xavfsizlik ustuvor ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, zamonaviy sharoitda jamiyat manfaatlarini o‘zida ifoda etuvchi ijtimoiy xavfsizlik masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu holatni davlatning farovonlik darajasi, avvalo, aholini barcha zarur ijtimoiy shart-sharoitlar bilan ta’minlash mezonlari orqali belgilanishi bilan bog‘lash mumkin.

1995-yil mart oyida Daniyada bo‘lib o‘tgan Ijtimoiy taraqqiyot bo‘yicha butunjahon sammitida qabul qilingan “Umumjahon ijtimoiy deklaratsiyasi”da ijtimoiy xavfsizlik atamasi ilk bor xalqaro huquqiy-siyosiy hujjat darajasida qo‘llanilgan [4]. Deklaratsiyada insonning hayotiy

ehtiyojlarini ta'minlash, ijtimoiy adolatni mustahkamlash, barqaror rivojlanishni ta'minlash va jamiyatda ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilandi.

2005-yilda BMT tashkil topganligining 60 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan Butunjahon sammitida zamonaviy dunyo tahdidlaridan insonni himoya qilish muammosiga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu Sammitda qabul qilingan yakuniy hujjatda inson xavfsizligining asosi ikki tahdidan, ya'ni **obyektiv** (muhtojlik va qashshoqlik) va **subyektiv** (qo'rquv)dan holi bo'lishdan iborat, deb e'tirof etilgan. Inson huquqlarini tan olgan holda BMT inson xavfsizligi konsepsiyasi qabul qilgan va ular quyidagi yo'nalishlardan iborat: iqtisodiy xavfsizlik, oziq-ovqat xavfsizligi, sog'liqni saqlash xavfsizligi, ekologik xavfsizlik, shaxsiy xavfsizlik, ijtimoiy xavfsizlik, jamoat xavfsizligi va siyosiy xavfsizlik [5].

Ta'kidlash lozimki, amaliyotda mazkur yo'nalishlarni bir-biridan ajratgan holda emas, balki ijtimoiy xavfsizlikning integral tushunchasi sifatida uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy xavfsizlik jamiyat ijtimoiy sohasining samarali faoliyatini ta'minlash, destruktiv jarayonlarning oldini olish, shaxslarning ijtimoiylashuvi uchun zarur shart-sharoit, vosita va mexanizmlarni saqlab qolish hamda rivojlantirish salohiyatini o'zida ifoda etadi. Shu bilan birga, u jamiyat va davlat doirasida turmush tarzi, aholi farovonligi, asosiy huquq va erkinliklar hamda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini himoya qilish va mustahkamlashga yo'naltirilgan holat sifatida talqin qilish mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy xavfsizlikni faqat shaxs darajasidagi himoya mexanizmi sifatida emas, balki ijtimoiy guruhlar va jamoalarning qonuniy huquqlari hamda manfaatlarini ta'minlash bilan uzviy bog'liq ijtimoiy fenomen sifatida talqin qilish mumkin. Uning mazmun-mohiyati jamiyatning institutsional barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy muvozanat va hamjihatlikni mustahkamlash hamda fuqarolar farovonligini kafolatlash jarayonlari orqali namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy xavfsizlik tushunchasi boshqa xalqaro hujjatlarda insonning turli xil xavf-xatarlardan himoya qilishga oid universal huquqi sifatida e'tirof etiladi. Samarali ijtimoiy xavfsizlik tizimi aholining barqaror daromad darajasining o'sib borishini ta'minlashga, tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatini kafolatlashga, kambag'allik va tengsizlikni qisqartirishga, ijtimoiy inklyuziya va inson qadr-qimmatini ta'minlashga ko'maklashishi lozim [6].

Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy xavfsizlikni faqat shaxs darajasidagi himoya mexanizmi sifatida emas, balki ijtimoiy guruhlar va jamoalarning qonuniy huquqlari hamda manfaatlarini ta'minlash bilan uzviy bog'liq ijtimoiy fenomen sifatida talqin qilish mumkin. Uning mazmun-mohiyati jamiyatning institutsional barqarorligini va ijtimoiy muvozanatni ta'minlash, o'zaro hamjihatlikni mustahkamlash orqali fuqarolarning farovonligini kafolatlash jarayoni orqali namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy tizimning barcha tarkibiy elementlari, ya'ni shaxs, ijtimoiy guruhlar va ijtimoiy jamoalar ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy obyektlari sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning ajralmas tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u davlat barqarorligi va jamiyat hayotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega [7].

Mahalliy olimlar tomonidan ijtimoiy xavfsizlik mamlakat va aholining ijtimoiy sohadagi manfaatlarini himoya qilish, jamiyatda ijtimoiy tuzilmalar va munosabatlar, hayot ta'minoti tizimlari va kishilarni ijtimoiylashtirish, hozirgi va kelajak avlodlar ehtiyojlari taraqqiyotiga muvofiq turmush tarzini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar yig'indisini ifodalaydi. Ijtimoiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning bir qismi sifatida shaxs, aholi ijtimoiy guruhlari va jamoalarining hayotiy muhim manfaatlari, huquqlari va erkinliklarining buzilishi tahdidlaridan himoyalanganlik holati sifatida talqin qilinadi [8].

Boshqa olim esa, ijtimoiy xavfsizlikni shaxs, jamiyat va davlatning ijtimoiy sohadagi manfaatlarining ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilinganlik holati sifatida izohlaydi [9].

Sotsiologik ensiklopediyada "ijtimoiy xavfsizlik" tushunchasi inson hayoti, jismoniy va ruhiy sog'lig'iga tahdidlarning minimal darajada bo'lishi kafolatlangan holda, jamiyatda mavjud ijtimoiy shart-sharoitlar va ijtimoiy ne'matlar (moddiy, vaqt, sanitar-epidemiologik, ekologik, psixologik omillar hamda inson va jamiyatning umumiy turmush darajasi) ta'minlangan holat sifatida ta'riflanadi. Shuningdek, u ishlab chiqarishning barcha asosiy sohalari, ijtimoiy tarmoqlar, ichki

konstitutsiyaviy tartibning himoyalanganligi, tashqi xavfsizlik va madaniy muhit barqarorligi bilan izohlanadi [10].

Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash jarayonida nafaqat siyosiy va huquqiy institutlarning samarali faoliyati, balki ijtimoiy sohaning kompleks rivojlanishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunday sharoitda xavfsizlikni ta'minlashga ta'sir etuvchi bir qator omillarni hisobga olish zarur bo'ladi. Jumladan, aholi turmush darajasi va uning barqaror o'sishi, ijtimoiy tenglik va adolatni ta'minlash, ta'lim hamda sog'liqni saqlash tizimining samaradorligi, aholining bandlik darajasi, mehnat bozoridagi barqarorlik, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganligi, demografik o'zgarishlar, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy integratsiyaning yuksakligi ijtimoiy xavfsizlikning asosiy kafolatlari sifatida namoyon bo'ladi.


Ko'rsatib o'tilgan yondashuvlardan kelib chiqib, ijtimoiy xavfsizlikni shaxs, ijtimoiy guruhlar va jamoalarning hayotiy muhim manfaatlari, huquq hamda erkinliklariga qaratilgan tahdidlardan himoyalangan holati sifatida izohlash mumkin. Bunday holat ijtimoiy tizimning barqaror faoliyat yuritishi, ijtimoiy muvozanatni saqlash va jamoaviy hamjihatlikni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Berilgan mulohazalarni tahlil qilgan holda, ijtimoiy xavfsizlik tushunchasining qamrovini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha turkumlab olamiz (1-rasm).



1-rasm. Ijtimoiy xavfsizlik tushunchasini qamrovi

Rasmdan ko'rinib turibdiki, inson hayotini qayta tiklash, shaxs va ijtimoiy guruhlarining maqomi, tengsizligi bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish orqali jamiyatda ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashga erishiladi. Ularning har biri muayyan tasnifiy xususiyatlarga ega bo'lib, ular mamlakatdagi ijtimoiy jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, sog'liqni saqlash, ta'lim, demografik siyosat, uy-joy va pensiya ta'minoti, ijtimoiy sug'urta, ish haqi, mehnat sharoitlari va mehnat muhofazasi, ijtimoiy hamkorlik va mehnat munosabatlari, aholi bandligi va ishsizlik, mehnat migratsiyasi, ijtimoiy himoya hamda aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish masalalari bilan chambarchas bog'liq.

Quyidagi jadvalda ijtimoiy sohani rivojlantirish va xavfsizligini ta'minlashga ta'sir etuvchi omillarni quyidagicha tasniflab olamiz (2-rasm).



2-rasm. Ijtimoiy sohani rivojlantirishga va xavfsizligini ta'minlashga ta'sir etuvchi omillar

Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda ko'rsatib o'tilgan omillarni omillarni hisobga olish lozim bo'ladi. Ushbu omillarning har biri muayyan tasnifiy xususiyatlarga ega bo'lib, ular mamlakatdagi ijtimoiy jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Quyida ushbu omillarni izohlab o'tamiz:

siyosiy omillar – davlat tomonidan samarali ijtimoiy siyosat yuritilishi ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Bunda ijtimoiy sohaning institutsional salohiyatini oshirish, aholi turmush sifatini ta'minlash, kam ta'minlangan qatlamlarni qo'llab-quvvatlash va ularga zarur ijtimoiy yordam ko'rsatish orqali namoyon bo'ladi. Shuningdek, mamlakatdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatning barqarorligi xavfsizlik darajasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi;

huquqiy omillar – qonunchilik normalari va huquqiy munosabatlarning samaradorligi ijtimoiy xavfsizlikning huquqiy poydevori bilan belgilanadi. Mazkur jarayonda aholining huquqiy ongi darajasini va huquqiy savodxonligi muhim ahamiyatga ega. Amalda qonunchilikning samarali qo'llanilishi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda va barqarorlikni ta'minlashda dolzarb hisoblanadi;

iqtisodiy omillar – ijtimoiy xavfsizlikning iqtisodiy asoslari mamlakat va hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Ijtimoiy infratuzilmaning holati va rivojlanish tendensiyalari, ishlab chiqarish munosabatlari, mulk shakllari va ularning xususiyatlari, shuningdek taqsimot mexanizmlari aholining turmush darajasi va ijtimoiy barqarorlikka jiddiy ta'sir ko'rsatadi;

madaniy-ma'rifiy omillar – ijtimoiy munosabatlarning xarakterini jamiyatda shakllangan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, madaniy me'yorlar va an'analar belgilab beradi. Ular hududiy xususiyatlarga ega bo'lib, insonlarning o'zaro muloqotida va ijtimoiy institutlarning faoliyatida muhim tarkibiy omil sifatida namoyon bo'ladi;

ekologik omillar – aholining turmush darajasi, hayot tarzi va salomatligi ko'p jihatdan tabiiy iqlimning holati va ekologik vaziyatga bevosita chambarchas bog'liq sanaladi. Atrof-muhitdagi

ijobiy yoki salbiy o'zgarishlar dinamikasi insonlarning ijtimoiy faolligi, iqtisodiy imkoniyatlari va xalqning umumiy farovonligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi;

demografik omillar – jamiyatning ijtimoiy tuzilishi aholining tarkibi bilan uzviy bog'liq. Mamlakatdagi tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari, migratsiya jarayonlari, bandlik darajasi, shuningdek kasb-malaka tarkibi demografik omillarning asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi. Bunday jarayonlar jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning dinamikasini va rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi;

milliy-etnik omillar – milliy mentalitet, qadriyatlar, urf-odat va an'analar jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu omillar ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlashi yoki aksincha, muayyan ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli ushbu omillar ijtimoiy birdamlik va multikulturalizm masalalarida ustuvor ahamiyatga ega bo'lib qoladi;

ijtimoiy-psixologik omillar – jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tizimida aholining kayfiyati, intilishlari, ijtimoiy kutilmalari va guruhiiy qarashlari muhim rol o'ynaydi. Shaxs va jamiyat xulq-atvori hamda psixologiyasidagi o'zgarishlar ijtimoiy muhitning barqarorligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni [11] va har yili qabul qilinadigan davlat dasturlarining mazmunlarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, barcha normativ-huquqiy hujjatlarda O'zbekistonning ijtimoiy sohadagi milliy manfaatlari, eng avvalo xalqning yuqori turmush darajasini ta'minlash orqali belgilanadi. Bu manfaatlarga tahdid sifatida esa aholi tabaqalanishining ortib ketishi, aholining kambag'allik chegarasidan pastda yashovchi qismi ulushining ortishi va ishsizlik darajasining o'sishi qayd etiladi.

O'zbekistonda aholining turmush sifatini oshirish sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlashning strategik maqsadlari aholining ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlik darajasini kamaytirish, fuqarolarning turmush sifatini oshirish, shaxsiy xavfsizligini ta'minlash, qulay uy-joydan foydalanish imkoniyatining yaratilishi, yuqori sifatli va xavfsiz tovarlar hamda xizmatlarning ko'rsatilishi, faol mehnat faoliyati uchun munosib ish haqi kafolatlari mavjudligi bilan ta'minlanadi.

Qonunchilik-huquqiy nuqtayi nazardan ijtimoiy xavfsizlik tushunchasi xalqaro miqyosda e'tirof etilgan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi [12] va Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada [13] kafolatlangan ijtimoiy huquqlariga tayanadi. Ushbu tushuncha ijtimoiy subyektlarning barchasini dinamik ravishda faoliyat yurituvchi ijtimoiy yaxlitlik sifatida hayotiy muhim ehtiyojlarini qondirish, rivojlanish va hayotni qayta tiklash uchun zarur minimal shart-sharoitlarni belgilab beradi.

XULOSA

Umuman olganda ijtimoiy xavfsizlik jamiyatning ijtimoiy funksiyasi qay darajada amalga oshirilayotganiga bog'liq bo'lib, u barcha ijtimoiy subyektlarning hayotiy faoliyatini uzluksiz qayta tiklash hamda yagona ijtimoiy makon doirasida ularning o'zaro munosabatlarini uyg'unlashtirishni ta'minlashi lozim. Ijtimoiy xavfsizlik subyektlari sifatida mamlakat fuqarolari, davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek jamiyat a'zolari va ularning subyektlari – siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari va ijtimoiy harakatlar vakillari maydonga chiqishi mumkin.

Bugungi kundagi zamonaviy global jarayonlar ijtimoiy xavfsizlikka yangi tahdidlarni, ya'ni raqamli tengsizlik va axborot xavfsizligini ta'minlash; internet orqali tarqalayotgan radikal g'oyalar va dezinformatsiya; global pandemiyalar va sog'liqni saqlash tizimining barqarorligi; iqlim o'zgarishi va ekologik muammolarning ijtimoiy oqibatlari; migratsiya jarayonlarining yangi ko'rinishlari va ularning ijtimoiy integratsiyaga ta'sirini yuzaga keltirmoqda.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash masalasi mamlakat milliy xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, degan xulosaga kelish mumkin. U shaxs, oila, jamiyat, turli ijtimoiy guruhlar hamda davlat manfaatlarining amaliy ifodasini o'zida mujassamlashtiradi. Bunday sharoitda davlat institutlari, ijtimoiy guruhlar va iqtisodiy omillar birgalikda harakat qilishi zarur. Aholi turmush darajasi ijtimoiy xavfsizlik holatining eng sezilarli indikator bo'lib qoladi. Chunki ijtimoiy xavfsizlikni faqat qonunlar yoki davlat nazorati bilan ta'minlab bo'lmaydi – u ijtimoiy adolat, iqtisodiy imkoniyatlar va barqaror ijtimoiy jarayonlarning uyg'unligi orqali amalga oshiriladi.

Adabiyaotlar/Literatura/References

1. Maslow A.H. “Motivation and Personality”. – New York: Harper & Row, 1954//<https://www.holybooks.com/wp-content/uploads/Motivation-and-Personality-Maslow.pdf>
2. Мокшин В.К. Словарь-справочник по социологии. Архангельск: Изд-во Арханг. гос. мед. акад., 2000 г. – 36 с.
3. Parsons T. The Social System//<https://voidnetwork.gr/wp-content/uploads/2016/10/The-Social-System-by-Talcott-Parsons.pdf>
4. World Summit for Social Development. Copenhagen Declaration and Programme of Action. United Nations, 1995//<https://www.un.org/en/conferences/social-development/copenhagen1995>
5. Итоговый документ Всемирного саммита 2005 года (п. 143). Принят резолюцией Генеральной ассамблеи ООН 60/1 от 24 октября 2005 г. // https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/outcome2005.shtml
6. Социальная безопасность российского общества (социология, этнология, история): коллективная монография/ под ред. А.М.Коршунова, М.Г.Котовской. – М.: РИТМ, 2021. – С. 67.
7. Logvinova I., Gorkovenko N. Social Security as the Basis of the National Security of the Country and the Region. International Conference on Economics, Management and Technologies 2021. **Volume** 110, 2021//<https://doi.org/10.1051/shsconf/202111004015>
8. Абулқосимов Ҳ.П. Ўзбекистонда ижтимоий хавфсизликни таъминлашнинг айрим масалалари. Иқтисод ва молия / Экономика и финансы 2019, 2(122). // <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-izhtimoiy-havfsizlikni-taminlashning-ayrim-masalalari/viewer>
9. То‘раев О.В. Jamiyat transformatsiyasi sharoitida ijtimoiy xavfsizlikka ta’sir qiluvchi sotsial omillar. Monografiya. – Toshkent.: “Grand kondor print”. 2025-y. – В. 9.
10. Социальная политика: Толковый словарь / Под общ. ред. Н.А. Волгина. – 3-е изд. М.: Издательство РАГС, 2017. – С 178.
11. <https://lex.uz/docs/6600413>
12. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 10.12.1948-yil//<https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>.
13. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023-yil//<https://constitution.uz/uz/clause/index>.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000